

## THE IMPORTANCE OF INCENTIVES IN THE EDUCATION SYSTEM



**Norqulova D.Z - PhP, dots v.b.  
Usmanov B.SH - IRB-120 - group student**

### **Annotation:**

This article is about the importance of financial incentives and motivation in the education system and the effectiveness of spiritual motivation in education in our country.

### **Keywords:**

Methodology, motivation, motivation, material, spiritual, local, international, fund, budget, psychologist, factor, emotion.

Insoniyat ongli yashashni boshlabdiki, ta'lism - har qaysi makon va zamonda eng muhim najot bo'lib kelgan. Ammo, bizning ota bobolarimiz hech qachon ta'limga tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limga ajratmad. Jadidchilik namayondalari ham butun faoliyatini ona xalqimiz manfaatlari yo'lida sarflashdi. Ularning asosiy maqsadlari o'qituvchilarni jamiyatning asosiy shaxsiga aylantirish, ularni chet el metodlariga moslashtirish va mana shu yo'l orqali ta'limga sifatini yaxshilash edi. Ta'limga olishga qiziqish va ishtiyoq esa o'z o'zidan avvalo bolaga ota ona tomonidan berilayotgan tarbiyaga ham bog'liqdir. Shu sababli bo'lsa kerak, Abdulla Avloniy - "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deya tarbiyaning ahamiyatiga urg'u bergen bo'lsa, ta'limga haqida - "Hayot yo'lida birinchi masala - maktab masalasidir" deb, jamiyatda eng avvalo isloh qilinishi kerak bo'lgan soha, bu ta'limga ekanini alohida ta'kidladi. Dunyo miqyosida barcha rivojlangan mamlakatlar bizning ajdodlar qilgan kashfiyot va nazariyalar natijasida hozirgi holatiga yetdi. Endi esa o'rghanish navbatibizga yetib keldi va ular bizdan qanday foydalinishgan bo'lsa biz ham shunday foydalanish kerak. O'z o'zidan savol tug'uladi:

Bizning Yevropadan o'rghanadigan nimamiz bor?

Avvalo, metodika, axborot kommunikatsiya texnologiya ta'limi, chet tillarini o'rgatish, hamda o'qitish davomida, o'qituvchi va o'quvchilarni rag'batlanishiga, ularga o'sha rag'bat orqali motivatsiya berishdir. Ayniqsa yigirma birinchi asrda, maktab yoshidagi bolalarga beriladigan ruhiy dalda haqiqatdan chin ma'noda katta ahamiyatga ega. Ammo, zamon ruvojlangani sari, uslublar eskirmoqda. Ayni vaqtida, qanaqadir davra suhbatlari tashkil etish, mashhur shaxslar bilan uchrashuvlar o'tqazish kerakli samarani bermay qo'ydi. Endi biz yangi bir yo'nalishda, o'quvchilarga ham, o'qituvchilarga ham rag'bat orqali motivatsiya berish yo'llarini izlashimiz kerak. To'g'ri, ta'limga tizimida ham, boshqa yo'nalishlarda ham, turli xil maqtov va faxriy yorliqlar, tashakkurnoma va shunga o'xshash ko'rinishdagi rag'batlar bor. Ammo, ming afsuski, bularning ham vaqtini o'tib bo'ldi. Asosiy moddiy rag'batlar faqatgina yirik yutuqlar, jumladan maktablarda bilimlar bellashuvlarida va maktab, kollejlarda fan olimpiadalarida Respublika bosqichidan yuqori o'rnlarni olgan o'quvchilarga va ularning o'qituvchilarigagina moddiy rag'bat, qolgan mahlliylar, tuman va viloyat bosqichlarida esa rasman hech qanday mukofot pullari belgilanmagan. Bulardan tashqari maktab ichida ham o'tqaziladigan turli xil zakovat va boshqa jamoaviy o'yinlar, shu bilan birga kitobxonlik, insholar ko'rlik tanlovlari hamda sport musobaqalarida faqatgina, yuqorida aytganimiz kabi, faxriy yoki maqtov yorliqlari bilangina chegaralanib qolayabmiz. Natijada, yetarlicha ma'naviy rag'bat olgan ustozlar, o'quvchi bilan ortiqcha ishlashmayabdi. Ayni shu masalada maktab o'qituvchilari bilan gaplashganimizda, ular - "Hozirda maktablarda bir sinfda o'ttiz beshtadan qirq beshtagacha o'quvchi bor. Har bir bolaga ikki daqiqadan ajratgan taqdirimizda ham, hamma bilan ishlashga, yoki yangi nimadir o'rgatishga imkon bo'lmaydi. Bolalar bilan qo'shimcha ishlashga keladigan bo'lsak, turli tanlovlarda motivatsiya yetishmagani sababli ular, darslar tugashi bilan, uyiga shoshilishadi. Ta'limga sifatini oshirish uchun, agar imkon bo'sa, maktablarlarda sinf o'quvchilar sonini yigirma beshta qilib

belgilash va moddiy rag'batlantirish masalasini ham oshirish kerak" – deyishdi. Ularning asosiy muammosi bolalarini, ayniqsa shaharda internet orqali asosiy vaqtini o'tqazayotgan o'quvchilarni ta'limga qiziqtirishdir. Vazirlar Mahkamasining 823-sonli va 831- sonly qarorlariga ko'ra, asosiy moddiy rag'batlar faqatgina bilimlar bellashuvi va olimpiadaning Respublika bosqichi, shuningdek Xalqaro olimpiadalarda o'rinn olganlargagina rasman belgilangan. Endi oddiy statistikaga qarasak har bir fandan bitta sinf tipi bo'yicha uchta ( agar shulardan uchchalasi ham 76 balldan ko'proq to'play olsa) o'quvchi va o'qituvchiga keying yil yana kuchliroq tayyorlanib, qayta shu natijani qo'lga kiritish uchun motivatsiya, yani moddiy rag'bat beriladi. Xalqaro olimpiadalarga keladigan bo'lsak, unda ham, har bir fandan yosh jegarasiga qarab, faqat uchta bola natijaga erishayotgan bo'lsa, qolgan shuncha o'quvchilar, yani, har bir mакtab, mahalli, tuma va viloyat bosqichlarida o'rinn olganlar tashakkurnoma bilan ortlariga qaytishadi. O'qituvchilarning takidlashiga ko'ra keying yillarda ham eng kuchli intilish, aynan o'sha o'quvchilarda bo'ladi. Vazirlar Mahkamasining "Umumiyo o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 30-sentabrdagi 823-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimcha lar kiritish haqida 831-sonli qarorida: - "Xalqaro matematika olimpiadasi — International Mathematical Olympiad (IMO), Xalqaro fizika olimpiadasi — International Physics Olympiad (IPhO), Xalqaro kimyo olimpiadasi — International Chemistry Olympiad (IChO), Xalqaro biologiya olimpiadasi — International Biology Olympiad (IBO), Xalqaro informatika olimpiadasi — International Olympiad in Informatics (IOI) g'oliblarini tayyorlagan o'qituvchilar va ta'lim muassasasi direktorlariga navbatdagi o'quv yili uchun Jamg'arma mablag'lari hisobidan oltin, kumush va bronza medallariga qarab tegishinchcha qo'shimcha 200, 175 va 150 foizlik ustama haq to'lanadi" <sup>1</sup> – deya takidlangan. Ammo qaror davomida pastki tabaqa yutuqlarini faqatgina maktab ichki budgetida ortiqcha mablag' mavjud bo'lsagina taqdirlanishi yozilgan. Bizga malum bo'lgani esa har doim maktablar ma'anaviy rag'bat bilan cheklanadi xolos. Biz bazi maktab psixologlari bilan shu masalada gapashganimizda, maktab mablag'ni kichik rag'batlarga ishlatgandan ko'ra, o'quv anjomlari va ko'rgazma materiallari xarid qilishni avzal ko'radi. Aslida o'quvchilarga motivatsiya berishdan oldin, uni foydalilik koyfisentini anglash uchun, motivatsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga qarasak ham tushunamiz:

Motivatsiya so'zi psixologiyada ikki ma'noda ishlatiladi: xatti-harakatni belgilovchi omillar tizimini anglatuvchi va ma'lum bir darajadagi xatti-harakatni rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi jarayonning xarakteristikasi sifatida<sup>2</sup>. Ya'ni, ikkinchi ma'noga etibor beradigan bo'lsak, rag'batlantirishda, biz qilayotgan rag'bat haqiqiy ma'noda ham o'quvchiga, ham o'qituvchiga kerakli motivatsiyani bera olishi kerak deb o'ylayman. Ta'lim faoliyati uchun motivatsiya tuzilishini o'rganayotganda hissiy tarkibiy qismga e'tibor berish kerak, Uning asosiy xususiyati o'quvchilarni o'quv jarayonida tajribasi, o'rganishga hissiy munosabati. Aslini olganda ham hissiy otlar mustaqil qo'zg'alishga ega, ammo bunga biz turtki ham bo'lsak albatta natichaga erishamiz.

Xulosa qilib aytganimizda, bizning asosiy taklifimiz, maktab, akademik litsey va barcha o'quv muassalarida bilimlar bellashuvi va olimpiadalarda tuman va viloyat bosqichlaridan, shuningdek, ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro o'tqazilib kelinayotgan musobaqalarda faxriy o'rirlarni moddiy rag'batlantirish masalasini qayta ko'rib chiqish va qonun bilan qattiy belgilab qo'yilishdir. Chunki, Vazirlar Mahkamasining 823- sonli<sup>3</sup> va 831-sonli qarorlarida agar maktab budgetida ortiqcha mablag' mavjud bo'lsa, degan jumla' maktab direktorlari yoki masul shaxslarning o'qituvchi va o'quvchilarga moddiy rag'batni juda ham pissivligia olib kelmoqda.

1. <https://lex.uz/docs/-5194175> Murojat etilgan sana: 10.02.2002
2. <https://gostehstroy.ru/uz/dlya-zhenschin/osobennosti-motivacii-uchebnoi-deyatelnosti-mladshih-podrostkov/> Murojat etilgan sana: 10.02.2002
3. <https://t.me/c/1347120034/78> Murojat etilgan sana: 10.02.2002
4. <https://xs.uz/uz/post/oqituvchilarni-direktor-zhamgarmasi-orqali-moddij-ragbatlantirish-tizimi-takomillashtirildi>